



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



ALEKSANDR FAYNBERG VA O'ZBEKISTON: SHOIRNING SHE'RLARIDA VATAN TASVIRI

Keldiyorova Sevinch Jasur qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2-kurs talabasi

Sevinchkeldiyorova2005@gmail.com

B.Ergashova

*Ilmiy rahbar: Italyan tili tarjima nazariyasi
va amaliyoti kafedrası mudiri*

Annotatsiya: *Ushbu maqola Aleksandr Faynbergning O'zbekistonga bag'ishlangan "Vatan" va "Baxsh etadi dilga oromlar" she'rlari tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotda badiiy, lingvistik, qiyosiy va tarjimaviy tahlil usullari qo'llanilib, shoirning O'zbekiston madaniyati va tabiatiga bo'lgan sadoqati va muhabbati aks ettirilgani ko'rsatilgan. She'rlarda xalq hayotining soddaligi va milliy qadriyatlar tasviri asosiy o'rinni egallaydi. Faynbergning realizmga asoslangan ijodiy yondashuvi va tarjimalarining o'zbek va rus adabiyoti o'rtasida madaniy ko'pri yaratganligi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Aleksandr Faynberg, O'zbekiston, Vatan tasviri, tabiat, she'r, tahlil, madaniyat, milliy qadriyatlar.*

ALEKSANDR FAYNBERG AND UZBEKISTAN: THE IMAGE OF HOMELAND IN THE POET'S WORKS

Abstract: *This article is devoted to the analysis of Aleksandr Faynberg's poems "Vatan" and "Baxsh etadi dilga oromlar" dedicated to Uzbekistan. The study employs artistic, linguistic, comparative, and translation analysis methods to highlight the poet's deep devotion and love for Uzbekistan's culture and nature. The poems emphasize the simplicity of rural life and the depiction of national values as central themes. Faynberg's realism-based creative approach and his translations serve as a cultural bridge between Uzbek and Russian literature.*

Key words: *Aleksandr Faynberg, Uzbekistan, homeland depiction, nature, poetry, analysis, culture, national values.*

KIRISH

Aleksandr Arkadyevich Faynberg (1939–2009) – rus tilida ijod qilgan mashhur o'zbek shoiri, tarjimon va ssenariynavisdir. Toshkentda tug'ilib, hayoti davomida O'zbekistonning madaniy va adabiy muhitiga katta hissa qo'shgan. Shoirning ijodi O'zbekistonning go'zalligi, xalqining mehmondo'stligi va milliy qadriyatlarini aks ettirish bilan ajralib turadi. Faynberg 15 dan ortiq she'riy to'plamlar muallifi bo'lib, Alisher Navoiy, Erkin Vohidov, va Abdulla Oripov kabi o'zbek shoirlarining asarlarini rus tiliga tarjima qilishda





ulkan ishlar qilgan. U o'zining rus tilida yozgan she'rlari va tarjimalari bilan nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo adabiyotida katta o'rin egalladi. Uning she'rlari o'zbek xalqining qadriyatlarini, uning tabiatini va turmush tarzini sevib, ulug'lagan. Faynbergning "Vatan" va "Baxsh etadi dilga oromlar" she'rlari uning ona yurti O'zbekistonga bo'lgan sadoqatini va muhabbatini yuksak badiiy darajada ifodalaydi.

Ushbu maqolada Faynbergning vatan haqidagi she'rlari, uning vatanga bo'lgan chuqur muhabbati tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda badiiy, lingvistik, qiyosiy va tarjimaviy tahlil usullari qo'llanilib, Faynbergning o'zbek adabiyoti va madaniyatiga qo'shgan hissiy baholanadi.

METODOLOGIYA

Bu maqolada Faynbergning "Vatan" va "Baxsh etadi dilga oromlar" she'rlari tahlil qilindi. She'rlarni o'rganishda quyidagi metodlar va usullar qo'llanildi:

✓ **Badiiy tahlil usuli:**

She'rlarning badiiy uslubini, mavzusini va obrazlarini o'rganish uchun badiiy tahlil usuli qo'llanildi. She'rlar ichidagi ramziy ma'nolar, tasvirlar va so'z tanlovi tahlil qilindi. Bu tahlil yordamida Faynbergning vatan haqidagi fikrlarini va hissiyotlarini ifodalashdagi uslubi aniqlanib, she'rlarning o'zbek va rus adabiyoti o'rtasidagi madaniy ko'priklari sifatidagi o'rni tahlil qilindi.

✓ **Lingvistik tahlil:**

She'rlarni lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilish orqali Faynbergning til va so'zlashuv uslubidagi o'ziga xosliklar o'rganildi. Bu usul, ayniqsa, uning O'zbekiston haqidagi tasvirlar va xalqning qadriyatlariga bo'lgan hurmatini qanday aks ettirganini tushunishga yordam berdi.

✓ **Qiyosiy tahlil:**

Faynbergning "Vatan" va "Baxsh etadi dilga oromlar" she'rlari o'zbek adabiyotidagi boshqa shoirlarning vatan haqidagi she'rlari bilan qiyoslandi. Shoirning o'zbek madaniyati va adabiy muhitga qo'shgan hissiyoti, uning poetik yondashuvi va obrazlari solishtirildi. Bu tahlil shoir ijodining o'ziga xosligini va O'zbekistondagi adabiy jarayondagi o'rnini aniqlashga yordam berdi.

NATIJALAR

"Vatan" she'rida o'lka obrazi nihoyatda kuchli tasvirlangan. Faynberg o'z yurtini "quyoshli, to'rtburchak dalalar", "tizma tog'lar", "yo'llar", "gumbazdek teraklar" orqali jonli tasvirlaydi. Bu tabiat tasviri O'zbekistonning geografik va estetik xususiyatlarini aks ettiradi:



<i>Quyoshli, to'rtburchak dalalardan to Tizma tog'largacha cho'zilgan Vatan – Yo'llarning girdida bo'lib girgitton Gumbazdek teraklar turarlar qator.</i> <i>Dalalarni kezdim qadamma-qadam, Teodolit ko'tarib, o'lchadim tanob. Loysuvoq uylarda simirdim chalob, Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom.</i> <i>Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim</i> – <i>O'zbekistondadir xokim, turobim. Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.</i> <i>Mag'rur parvoz etar burgut falakda. O't tishladim. Labda sho'r ko'z yosh. Bu dam ham dardni, ham baxtni tuyim yurakda.⁵⁹</i>	<i>Меж знойными квадратами полей она легла до горного отрога — гудроновая старая дорога в тени пирамидальных тополей.</i> <i>Я в юности не раз ходил по ней с теодолитом и кривой треногой. Я пил айран в той мазанке убогой, где и теперь ни окон, ни дверей.</i> <i>Печальный край. Но именно отсюда я родом был, я родом есть и буду. Ау, Европа! Я не знаю Вас.</i> <i>Вдали орла безмолвное круженье. В зубах травинка. Соль у самых глаз. И горестно, и счастливо мгновенье.⁶⁰</i>
--	---

Boshidagi ikki misralarda O'zbekistonning iqlimi va relyefining xilma-xilligi ko'rsatilgan. Dalalar – ekin maydonlarini, tizma tog'lar esa O'zbekistonning tog'li hududlarini anglatadi.

She'rda real hayot tajribasi mavjud. Muallif yoshlik chog'ida yerni o'lchash bilan shug'ullangan va buni poetik tasvirga aylantirgan: “Dalalarni kezdim qadamma-qadam, Teodolit ko'tarib, o'lchadim tanob”. Bu misralar Faynbergning muhandislik va topografiya bilan shug'ullanganligini eslatadi.

Bundan tashqari, shoir o'zbek hayotining soddaligini tasvirlaydi. Bu misralar o'zbek xalqining mehmondo'stligi va hayotining ochiqqligini aks ettiradi: “Loysuvoq uylarda simirdim chalob, Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom.”

She'r yakunida milliy g'urur va Vatan bilan bog'liqlik his-tuyg'ulari kuchli aks etadi: “Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim – O'zbekistondadir xokim, turobim.” Faynberg o'zini O'zbekiston bilan bog'liqligini nasl-nasab orqali ta'kidlaydi va o'zbek yurtining bir qismi ekanligini ifodalaydi.

“Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.” misrasida muallifning madaniy identifikatsiyasi aks etgan. Shoir G'arbni tan olmaydi, chunki uning tug'ilgan yeri – O'zbekiston.

She'r Faynbergning milliy g'urur va vatanparvarlik mavzusini yorituvchi boshqa o'zbek shoirlari – Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Rauf Parfi kabi shoirlarning asarlari bilan qiyoslanishi mumkin. Masalan, Erkin Vohidovning “O'zbekiston” she'ri bilan

⁵⁹ O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi. (2021). *Aleksandr Faynberg: Qoralamaga qasida*. Toshkent: Adabiyot.

⁶⁰ <https://stihi.ru/2009/10/23/4444>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



qiyoslaganda, Faynberg realistik va shaxsiy tajribalar asosida yozgan, Erkin Vohidov esa O'zbekistonni orzu qilingan yuksak fazilatlar bilan tasvirlaydi.

Natijalarga ko'ra, "Vatan" she'ri Faynberg ijodining eng ta'sirchan namunalaridan biri bo'lib, u shoirning milliy identifikatsiyasi, Vatanga bo'lgan sadoqati va hayotiy tajribalarini o'zida mujassam etgan. Uning she'riyati realistik, chuqur va milliy ruh bilan yo'g'rilgan.

Baxsh etadi dilga oromlar, Boqsang tabiatning ro'yiga. Toshkulbalar, loysuvoq tomlar Chopib chiqar daryo bo'yiga. Choyxonachi choy damlar mashhur, Tiriltirar Masihdek jonni. Piyolada porlagan ko'k nur Yondiradi moviy osmonni. Bo'ribosar posbon chorboqqa, Tirikchilik tashvishi shirin. Kelin qozon osib o'choqqa, Cho'nqaygacha tutatar o'tin. O'sha tokcha, laganlar o'sha, Xontaxtada to'kin dasturxon. To'lin oyga o'xshar hamisha Harorati quyosh kabi non. Esimdadir barchasi, jami, Qorli tog'lar. Bu go'zal hayot. Daricha. Bog'. Hovli raqami... Vaqt raqamin unutdim faqat. ⁶¹	Здесь и просторно, и высоко. И к чайхане на берегу сбегают мазанки поселка и замирают на бегу. Чайханищик горд самим собою. Постиг он звездные миры. Восходит в небо голубое зеленый свет от пиалы. Собака дремлет под навесом. И с вечной думой о земном, присев на корточки, невестка разводит дым под казаном. Здесь те же ниши, те же площадки. И в центре низкого стола ложится свежая лепешка. Она по-прежнему кругла. Все моей памяти знакомо. В снегу вершины. Этот быт. Калитка. Дворик. Номер дома. Лишь номер века позабыт. ⁶²
---	---

She'r boshidagi misralarda shoir Vatan tabiatining sokin va go'zal manzaralarini tasvirlaydi, bu esa o'quvchida orom va qulaylik hissini uyg'otadi. "Toshkulbalar" va "loysuvoq tomlar" kabi detallar qishloq hayotining soddaligi va tabiiyligini aks ettiradi:

Keying misralarda choyxonachi ramziy obraz sifatida ko'rinadi, u odamlarning hayotiy ehtiyojlarini qondiradi va ularga ruhiy sokinlik bag'ishlaydi. Bu joy faqatgina choy ichiladigan joy emas, balki madaniy muloqot maskani sifatida tasvirlangan.

⁶¹ O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi. (2021). Aleksandr Faynberg: Qoralamaga qasida. Toshkent: Adabiyot.

⁶² <https://author.today/post/40598>



“O’sha tokcha, laganlar o’sha, Xontaxtada to’kin dasturxon.”: Ushbu misralarda O’zbekiston hayotining an’anaviy ko’rinishlari: kelinning tandirda ovqat tayyorlashi, tokcha va laganlar, dasturxon tasvirlanadi. Bu misralar xalq hayotining qadimiyligi va doimiyligini aks ettiradi:

Yakunda muallif nostalgiya bilan o’tmishni eslaydi. “Esimdadir barchasi, jami, Qorli tog’lar. Bu go’zal hayot.”

She’rni lingvistik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, ekspressiv tasvirlar orqali o’quvchi e’tibori qishloqning xotirjam hayotiga qaratilganligini ko’rishimiz mumkin: “Baxsh etadi dilga oromlar” — bu so’zlar tabiat va uning ruhiy ta’sirini aks ettiradi. “Piyolada porlagan ko’k nur” — piyoladagi choy osmonning ramziy aksidir.

Faynbergning bu she’ri boshqa o’zbek shoirlarining qishloq hayoti haqidagi she’rlari bilan qiyoslanishi mumkin. Masalan, Erkin Vohidovning va Abdulla Oripovlarning asarlarida qishloq tabiatining go’zalligi romantik ruhda tasvirlansa, Faynbergning uslubi realistikroq. U tabiatni emas, balki qishloq hayotining kundalik jihatlarini tasvirlaydi.

She’rning asosiy mavzulari: Vatan va tabiatning uyg’unligi: tabiat va hayot o’rtasidagi bog’liqlik aks ettirilgan; an’anaviy hayotning qadriyatlarini: xontaxta, kelin, dasturxon kabi obrazlar qishloq hayotini ifodalaydi; nostalgik his-tuyg’ular: she’r o’tmishni eslash orqali zamonaviy dunyo bilan bog’liq hisslarni aks ettiradi.

Ko’rinib turibdiki, Faynbergning bu she’ri realistik va samimiy tasvirlar orqali Vatan hayoti va tabiatini madh etuvchi ijodiy namunasi hisoblanadi. She’r o’zbek xalqining an’anaviy hayot tarzini poetik ramzlar bilan tasvirlagan holda, uning milliy o’ziga xosligini ko’rsatadi.

MUHOKAMA

Aleksandr Faynbergning “Vatan” va “Baxsh etadi dilga oromlar” she’rlari shoirning Vatanga bo’lgan chuqur muhabbatini, uning hayotiy tajribalarini va O’zbekiston madaniyatiga bo’lgan sadoqatini yuksak badiiy darajada ifodalaydi. She’rlarda xalq hayotining soddaligi, tabiatning go’zalligi va Vatan bilan bog’liq nostalgiya kuchli aks etgan.

Faynbergning badiiy uslubi realistik va shaxsiy tajribalarga asoslangan. “Teodolit ko’tarib, o’lchadim tanob” kabi misralar shoirning hayotdagi voqealarni poetik obrazlarga aylantirish mahoratini ko’rsatadi. Shuningdek, “Loysuvoq uylarda simirdim chalob” misrasi o’zbek xalqining mehmondo’stligi va ochiqko’ngilliligini tasvirlaydi. Bu tasvirlar nafaqat o’zbek madaniyatini, balki shoirning shaxsiy hissiyotlarini ham yoritadi.

She’rlarning o’zbek va rus tilidagi versiyalari orasidagi qiyosiy tahlil shuni ko’rsatadiki, tarjimalarda ayrim iboralar umimlashtirilgan bo’lsa-da, asarlarning ruhiy mazmuni va poetik estetikasi saqlanib qolgan. Misol uchun, “Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham” misrasi rus tilida “Ау, Европа! Я не знаю Вас” shaklida ifodalangan bo’lib, bu shoirning milliy identifikatsiyasini va G’arbni rad etishini o’quvchiga aniq yetkazadi.



Natijada, Faynbergning ijodi O'zbekiston hayoti va madaniyatining realistik, samimiy va chuqur badiiy ifodasini aks ettiradi. Bu she'rlar nafaqat milliy qadriyatlarni madh etadi, balki madaniy muloqot va millatlararo hamkorlikning yorqin namunasidir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Aleksandr Faynbergning "Vatan" va "Baxsh etadi dilga oromlar" she'rlari uning O'zbekistonga bo'lgan chuqur muhabbatini, milliy qadriyatlarni va oddiy hayotning go'zalligini ifoda etadi. Shoir realistik uslub va shaxsiy tajribalar orqali o'z she'rlarini mazmunan boyitgan.

Ushbu tadqiqot Faynbergning O'zbekiston madaniyatiga qo'shgan hissasini, shuningdek, uning ijodining o'zbek va rus adabiyoti o'rtasida madaniy ko'pri bo'lib xizmat qilganini tasdiqlaydi. She'rlardagi badiiy va lingvistik boylik O'zbekiston hayotining poetik ramzini yaratgan.

Kelajakda Faynbergning boshqa asarlari va tarjimalari lingvistik va madaniy nuqtai nazardan yanada chuqurroq o'rganilishi mumkin. Bu uning ijodining xalqaro miqyosdagi ta'sirini tushunish va millatlararo adabiy aloqalarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi. (2021). *Aleksandr Faynberg: Qoralamaga qasida*. Toshkent: Adabiyot.
2. Dinara, O. (2024). ALEKSANDR ARKADYEVICH FAYNBERGNING IJODIY HAYOTIGA NAZAR. *СОБРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ*, 1(2), 50-52.
3. qizi Jumaniyazova, L. S. (2023). ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RLARINING LINGVISTIK TAHLILI. *SCHOLAR*, 1(22), 20-23.
4. <https://stihi.ru/2009/10/23/4444>
5. <https://author.today/post/40598>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg